

“YO‘L” KONSEPTI VA UNING MILLIY QADRIYATLAR BILAN BOG‘LIQ KONSEPTOSFERASI: ADABIY-LINGVISTIK TAHLIL

Raximov Muzaffar Murodovich

Buxoro Davlat Universiteti tadqiqotchisi

m.m.raximov@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada “yo‘l” konsepti adabiy matnlar asosida konseptosfera doirasida tahlil qilinadi. Tadqiqot A.S. Pushkin va N.V. Gogolning badiiy asarlarida “yo‘l” tushunchasining lingvomadaniy, assotsiativ va semantik qatlamlarda qanday shakllanganini ko‘rsatadi. “Yo‘l” so‘zi bevosita ishlatilmagan hollarda ham arava, yo‘lovchi, vaqt, qorong‘ilik, qo‘sish kabi assotsiativ obrazlar orqali ifodalanadi. Konseptosfera modelida bu konsept yadrosi – harakat va tanlov, periferiya – vaqt va o‘zgarish, semiosfera – madaniyat, e’tiqod, falsafa kabi birliklar bilan boyitilgan. Tadqiqot natijalari “yo‘l” konsepti xalq tafakkurining lingvokognitiv va madaniy semiosferasida chuqur ildiz otgan murakkab struktura ekanini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: yo‘l konsepti, konseptosfera, assotsiativ tahlil, Pushkin, Gogol, lingvomadaniyat, semiosfera, adabiy metafora, vaqt, madaniy ong.

Аннотация: В статье анализируется концепт «дорога» в рамках концептосферы на основе литературных текстов. Исследование показывает, как понятие «дорога» реализуется в произведениях А.С. Пушкина и Н.В. Гоголя в лингвокультурных, ассоциативных и семантических аспектах. Даже без прямого упоминания слова «дорога» концепт выражается через образы повозки, путника, времени, темноты и песни. В модели концептосферы «дорога» занимает центральное место, объединяя уровни движения, выбора, времени, перемен, а также культурные и философские смыслы. Результаты подтверждают, что данный концепт является глубоко укоренённой структурой народного сознания и культурной памяти.

Ключевые слова: концепт «дорога», концептосфера, ассоциативный анализ, Пушкин, Гоголь, лингвокультура, семиосфера, литературная метафора, время, культурное сознание.

Abstract: This article explores the concept of “road” within the framework of the conceptosphere, based on literary texts. The study examines how the idea of “road” is expressed in the works of A.S. Pushkin and N.V. Gogol across linguocultural, associative, and semantic layers. Even without the direct use of the word, the concept emerges through metaphorical imagery such as carriage, traveler, time, darkness, and

song. Within the conceptosphere model, the “road” occupies a central position, encompassing notions of movement, choice, time, transformation, as well as cultural and philosophical dimensions. The findings confirm that “road” is a deeply rooted conceptual and cultural structure in folk cognition.

Keywords: road concept, conceptosphere, associative analysis, Pushkin, Gogol, linguoculture, semiosphere, literary metaphor, time, cultural consciousness.

Kirish. Har bir til o‘z xalqining tafakkuri, qadriyatlari va ruhiy holatlarini ifodalovchi murakkab tizimdir. Til vositasida nafaqat aloqa, balki xalq ongidagi tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajriba avloddan-avlodga yetkaziladi. Shu ma’noda konseptlar va ularning tilda qanday shakllanishi tilshunoslikda alohida ilmiy yo‘nalishga aylangan. Har bir konsept o‘z navbatida ma’lum bir semantik, assotsiativ va madaniy qatlamlarga ega bo‘lgan konseptosfera ichida mavjud bo‘ladi. Konseptosfera — bu tildagi barcha konseptual birliklarning o‘zaro bog‘liq holda tashkil topgan tarmog‘i bo‘lib, u xalq tafakkurining umumlashgan xaritasini ifodala ydi.

Mazkur maqolada "yo‘l" konseptining konseptosferadagi o‘rni, uning lisoniy emas, balki madaniy, assotsiativ va badiiy jihatdan qanday verbalizatsiya qilinishi tahlil qilinadi. "Yo‘l" yuzaki qaralganda transport vositasi harakati uchun mo‘ljallangan makon sifatida anglashilsa-da, aslida u xalq tafakkurida ancha chuqur va ko‘p qatlamli tushuncha sifatida shakllangan. U hayotiy tanlov, qismat, erkinlik, vaqt va o‘zgarish bilan bog‘liq murakkab semantik tizimdir.

Badiiy adabiyotda aynan "yo‘l" konsepti turli kontekstlarda – to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ko‘chma yoki umuman til birligi tarzida ishlatilmasdan, konnotativ shaklda tasvirlanadi. Pushkining "Hayot aravasi" she‘rida arava va yo‘lovchi obrazlari orqali inson hayotining boshlanishi, davomiyati va yakuni ifodalanadi. Bu yerda yo‘l haqida biror so‘z ishlatilmasada, butun mazmun hayotning o‘tkinchiligi va vaqtning shafqatsiz harakati orqali ifodalanadi. Shuningdek, "Qish yo‘li" she‘rida ham qorong‘i yo‘llar, yolg‘izlik, yo‘lovchi va yo‘lovchining ichki holatlari vositasida "yo‘l" tushunchasi chuqur metaforik qatlamda ifodalanadi.

Adabiyotda bu kabi assotsiativ verbalizatsiyalar, ayniqsa, xalq mentalitetining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan konseptlarni o‘rganishda nihoyatda muhim manba hisoblanadi. "Yo‘l" tushunchasi shunchaki geografik harakat emas, balki insonning ichki kechinmalari, tanlovi, irodasi, intilishi va ruhiy holatini aks ettiruvchi ko‘zgudir. U hayotiy kurash, vaqtdan qo‘rquv, kelajakdagi noma'lumlik, ichki e’tiqod, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga bo‘lgan ehtiyoj kabi holatlarni umumlashtiradi.

Shu boisdan, bu maqolada "yo‘l" konsepti badiiy matnlar asosida konseptosfera doirasida tahlil qilinadi. Maqsad – ushbu konsept atrofida shakllangan lisoniy emas, balki madaniy va kognitiv birliklarni aniqlash, ularning xalq ongidagi semantik va assotsiativ

strukturasi qanday tashkil topganini yoritishdan iborat. Buning uchun rus va o‘zbek adabiyotidan olingan matnlar asosida “yo‘l” tushunchasining badiiy verbalizatsiyasi, uning kontekstual va emotsiyonal yuklamalari tahlil etiladi.

Metodologiya. Mazkur maqolada “yo‘l” konseptining madaniy, assotsiativ va semantik xususiyatlarini aniqlash maqsadida kognitiv-lingvistik va lingvomadaniy tahlil yondashuvlari asosiy metod sifatida tanlandi. Ushbu yondashuvlar til birliklarining nafaqat grammatik va leksik tizimini, balki ular orqali xalq tafakkuridagi madaniy, axloqiy, emotsiyonal qatlamlarni aniqlashga xizmat qiladi. “Yo‘l” kabi konseptlar xalq tafakkurida ko‘p qatlamlari obrazlar, ramzlar va assotsiatsiyalar vositasida shakllanadi. Shu bois, ularni o‘rganishda faqat leksik yoki semantik tahlil emas, balki konseptosferik yondashuv talab etiladi.

Kognitiv yondashuv konseptlarni inson tafakkurining verbal ifodasi sifatida talqin qiladi. Konsept bu holda insonning madaniy xotirasida saqlanadigan va tilda har xil kontekstlarda yuzaga chiqadigan ma’no tizimidir. Tilshunos olim Yu.N. Karaulov konseptosferani inson ongidagi ierarxik va tizimli shakllangan bilimlar majmuasi sifatida talqin etgan bo‘lsa, D.S. Lixachyov konseptosferani milliy madaniyat, tarix, adabiyot va dunyoqarash bilan boyigan konseptlar yig‘indisi sifatida tavsiflagan [Karaulov, 1987, 98; Lixachyov, 1997, 280].

Lingvomadaniy yondashuv esa til birliklarining ortida turgan madaniy-ma’naviy tushunchalarni o‘rganishga imkon beradi. Bunday yondashuv doirasida “yo‘l” tushunchasi nafaqat transport harakati, balki hayot, qismat, sinov, yo‘qotish, kutish, e’tiqod, intilish kabi madaniy-semiosferik ma’nolar bilan boyigan obraz sifatida tahlil qilinadi. “Yo‘l” xalq tafakkurida ijtimoiy holat, ruhiy kechinma va madaniy ongning birlashgan ko‘rinishi bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda qo‘llangan asosiy metodlardan biri bu assotsiativ-matnli tahlil bo‘lib, u Pushkinning “Hayot aravasi” va “Qish yo‘li”, shuningdek Gogolning “O‘lik jonlar” asarlaridagi kontekstual birliklar asosida amalga oshirildi. Ushbu matnlarda “yo‘l” tushunchasi bevosita so‘z shaklida kam hollarda tilga olinadi, biroq u assotsiativ belgilar — arava, yo‘lovchi, vaqt, qorong‘ilik, burilish, manzil, yo‘qotish, qo‘sinq orqali ifodalanadi. Bu belgilar “yo‘l” konseptining semantik yadrosi bilan bog‘liq bo‘lib, periferiya va semantik maydonni shakllantiradi. Misol uchun, Pushkinning “Hayot aravasi” she’rida telba arava haydovchisi — vaqtini, arava esa inson hayotini bildiradi. Bu yerda konsept so‘z bilan emas, balki matn strukturasidagi obrazlar bilan ifodalangan [Pushkin, 1836].

Shuningdek, Gogolning “O‘lik jonlar” romanida ham “yo‘l” haqidagi tasvirlar bevosita so‘zlar bilan emas, balki kontekst orqali beriladi. “Vish, to‘rt g‘ildirakli arava Moskva tomon yetolarmikan?” kabi iboralar orqali “yo‘l” obrazining masofaviylik, noaniqlik, qismatga topshirilganlik kabi semantik zaminlari ochiladi [Gogol, 1842, 5].

Konseptosfera tahlilida yana bir muhim metod — model yaratish usulidir. Bunda konsept markaziy (yadro), yaqin (periferik) va keng (semiosferik) qatlamlarda ko‘rib chiqiladi. “Yo‘l” konsepti yadroda harakat va tanlovni, periferiyada vaqt, iztirob, hayajon, yo‘qotish va o‘zgarishni, semiosferada esa ijtimoiy muhit, e’tiqod, madaniyat va falsafiy dunyoqarashni qamrab oladi. Bu model til birliklarining oddiy semantik tasnifidan chiqib, ularning madaniy va ruhiy konnotatsiyasini ham aniqlash imkonini beradi.

Shu tarzda, maqolada qo‘llanilgan metodlar — kognitiv-lingvistik, lingvomadaniy, assotsiativ-matnli va model tahlili — “yo‘l” konseptining ko‘p qatlamlari va murakkab strukturasini ochib berishga xizmat qiladi. Bu esa xalq tafakkuri va adabiy-estetik obrazlar orqali milliy ongning qanday shakllanishini chuqurroq anglash imkonini yaratadi.

Natijalar. Tahlil jarayonida “yo‘l” konsepti adabiy matnlarda bevosita so‘z shaklida emas, balki assotsiativ, metaforik, kontekstual belgilar orqali ifoda etilishini ko‘rsatdi. Bunda konsept so‘z shaklida kam uchrasa-da, uning atrofida to‘plangan semantik birliklar, tasviriy vositalar va badiiy obrazlar uning konseptosfera doirasidagi mavjudligini va faol ishlashini isbotlaydi.

Birinchidan, “yo‘l” konsepti bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq assotsiativ birliklar Pushkinning “Hayot aravasi” va “Qish yo‘li” she’rlarida aniq ko‘zga tashlanadi. “Arava”, “yo‘lovchi”, “yamshchik”, “yo‘l bo‘yidagi qora uylar”, “qorong‘ilik”, “versta belgilar”, “pichoqlardek sanchilgan daraxtlar” kabi birliklar semantik jihatdan “yo‘l” atrofida aylangan, uni ifodalovchi obrazlar sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, “Hayot aravasi” she’rida haydovchining telbaligi — vaqtning to‘xtovsiz harakati, arava — hayotning o‘zi, burilishlar esa inson hayotidagi o‘zgarishlar sifatida talqin qilinadi. Yo‘l — bu yerda metafora emas, balki inson taqdirining butun metafizik modeli sifatida qurilgan [Pushkin, 1836].

Ikkinchidan, “yo‘l” konsepti orqali emotsiyonal semantika ham shakllanadi. Bunda yo‘l obrazlari inson ruhiyatidagi turli kechinmalarni ifodalashga xizmat qiladi. Hayajon, umid, qo‘rquv, yolg‘izlik, hafsalasi pir bo‘lgan ichki holat, tanlovga majburiyat, o‘zgarishga tayyorgarlik — bularning barchasi yo‘l atrofida metaforik asosda birlashadi. “Qish yo‘li” she’ridagi “qamishdek cho‘zilgan qora qorong‘ilik”, “yamshchik qo‘shig‘i”, “versta belgilarining yo‘ldan o‘tishi” — bular yo‘lga chiqqan odamning ruhiy holatini, uning iztirobini, kutish va davom etish hissini ifodalaydi [Pushkin, 1830].

Uchinchidan, Gogolning “O‘lik jonlar” asarida ham yo‘l obrazi bevosita “yo‘l” so‘zi bilan emas, balki harakat, safar, kelish, ketish, burilish, bekat, yo‘lbelgi kabi boshqa vositalar orqali beriladi. Jumladan, asarda “ressorali arava”, “aravaning g‘ildiragi Moskvagacha yetolarmikan”, “quyruqshoda ko‘tarilgan chang” kabi iboralar faqat harakatni emas, balki yo‘l va yo‘l bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik holatlarni ham

bildiradi. Bu yerda konsept shunchaki geografik harakat emas, balki jamiyat ichidagi harakatsizlik, ijtimoiy inersiya, “bir joyda aylanib yurish” degan chuqurroq ma’nolarni ham qamrab olgan [Gogol, 1842].

To‘rtinchidan, yo‘l konsepti vaqt bilan bevosita bog‘liq. Vaqt bu yerda harakatning ichki metronomi sifatida harakat qiladi. Pushkin “Hayot aravasi” she’rida “tongda boshlagan arava, kechgacha yura-yura charchaydi, ammo vaqt uni haydayveradi” deya yozadi. Bu obrazda vaqt — shunchaki soatlar oqimi emas, balki majburlovchi kuch, inson hayotini to‘xtovsiz harakatga soluvchi metaforik haydovchi — ya’ni “yamshchik” sifatida talqin etiladi. “Yo‘l” esa bu harakatning makoni, hayotning davomiy shaklidir.

Beshinchidan, verbalizatsiya shakllarining turli xilligi ham e’tiborga molikdir. Ko‘rib chiqilgan barcha badiiy matnlarda “yo‘l” so‘zi ko‘p hollarda bevosita ishlatalmaydi. Biroq uning semantik mayjudligi turli kontekstual birliklar, poetik tasvirlar, ramziy detal va obrazlar orqali to‘liq ifoda etiladi. Bu esa “yo‘l” konseptining til birliklarida qanday darajada semantik kuchga ega ekanini isbotlaydi. Yo‘l bu yerda matn markazi sifatida emas, balki matn ostidagi asosiy ma’no, metafora va psixologik semantikani birlashtiruvchi o‘q vazifasini bajaradi.

Oltiinchidan, konseptning obrazliligi, ya’ni badiiy konnotatsiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Pushkinning she’rlarida yo‘l va unga oid assotsiativ birliklar orqali insonning umr yo‘li, taqdirga bo‘lgan munosabati, oxirat haqidagi mulohazalari, hatto o‘z-o‘zini tushunishga bo‘lgan urinishlari aks etgan. Gogolda esa bu obraz ijtimoiy-siyosiy turg‘unlik, jamiyatda “o‘lik jonlar” singari harakatsizlik, maqsadsizlik bilan ifodalanadi. Bu jihatlarda “yo‘l” konsepti adabiy obraz sifatida nafaqat semantik maydonni, balki estetik pozitsiyani ham bildiradi.

Yettinchidan, tahlil natijalariga ko‘ra, yo‘l konsepti o‘z atrofida keng semiosferani shakllantiradi. Bu semiosfera bir nechta qatlamdan iborat: harakat (arava, yo‘lovchi), vaqt (tong, kech, daryo oqimi), ruhiy holat (umid, og‘riq, hayajon), tashqi muhit (qorong‘ilik, yo‘lbelgilari, yo‘lchilik madaniyati), metafizik tushunchalar (qismat, halokat, yo‘l oxiri). Bu qatlamlar o‘zaro birlashib, yo‘lning faqat til birligi emas, balki xalq tafakkurining murakkab modeli sifatidagi o‘rnini mustahkamlaydi.

Natijada “yo‘l” konsepti tilshunoslikda tor semantik birlik sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy va badiiy ongda ko‘p qirrali mazmunga ega bo‘lgan lingvokognitiv va lingvopoetik birlik sifatida qaraladi. Bu esa uning konseptosfera ichida yadroviy pozitsiyani egallashiga olib keladi.

Muhokama. Tahlil qilingan manbalar asosida “yo‘l” konsepti nafaqat lisoniy birlik, balki milliy tafakkurda muhim aks ettiruvchi madaniy-kognitiv fenomen sifatida shakllangani aniq bo‘ldi. U milliy ongda nafaqat transport vositasi harakati bilan bog‘liq semantik birlik sifatida, balki hayotiy tanlov, maqsadga intilish, taqdir va e’tiqod kabi murakkab ichki qatlamlarga ega bo‘lgan strukturaviy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Shu

jihatdan, “yo‘l” konsepti xalq tafakkurining axloqiy-estetik tizimiga chuqur singib ketgan va madaniy semiosferaning asosiy yadrolaridan biriga aylangan.

Pushkin va Gogol ijodida “yo‘l” obrazining turli kontekstlarda ishlatalishi bu konseptning milliy tafakkurda qanday qamrovga ega ekanini namoyish etadi. Pushkinnin “Hayot aravasi” she’rida arava, haydovchi, yo‘l holatlari orqali inson hayotining vaqtga bog‘langan tuzilishi ifodalanadi. Vaqt — haydovchi; arava — umr; yo‘l — insonning bu dunyodagi hayot yo‘li. Bu obrazlar oddiy semantik birlik emas, balki o‘zaro bog‘langan assotsiativ konseptlar majmuasidir. Ular orqali jamiyatdagi vaqt tushunchasi, insonning o‘z hayotiga bo‘lgan qarashlari va hayotiy harakatining ma’naviy talqini ifodalanadi [Pushkin, 1836].

Gogolning “O‘lik jonlar” asarida esa yo‘l bevosita so‘z sifatida kam ishlataladi, biroq u butun roman bo‘ylab harakatni tashkil etuvchi ichki dramatik kuch sifatida mavjud. Asardagi asosiy qahramon har doim yo‘lda — tashrif, ketish, kutish, manzil izlash, vaqtga yetishishga harakat qilish — bu holatlar orqali jamiyatning harakatsizligi, faqat tashqi harakat bilan band bo‘lgan ichki bo‘shliq holati ko‘rsatiladi. Gogolda yo‘l jamiyatdagi ijtimoiy qiyofaning, harakat va maqsadsizlik o‘rtasidagi muvozanatsizlikning badiiy modeli sifatida ishlaydi [Gogol, 1842].

“Yo‘l” konsepti bu kabi adabiy manbalarda tahlil qilinganda, uning konseptosfera ichidagi o‘rni ham aniq bo‘lib boradi. Avvalo, uning **yadrosi** — harakat, tanlov, yo‘nalish, intilish kabi elementlardir. Bu qatlamda yo‘l — konkret semantik birlik: yurish, borish, yetish, safar. Bu yadroning atrofida esa **periferik qatlam** joylashgan bo‘lib, unga vaqt, taqdir, o‘zgarish, qismat, hayot falsafasi, ruhiy holat, xotira kabi tushunchalar kiradi. Shuningdek, undan tashqarida joylashgan **semiosferik maydon** esa estetik, diniy, falsafiy, madaniy va axloqiy ifodalar orqali boyitilgan assotsiativ qatlamni tashkil etadi. “Yo‘l” obrazining bu darajada ko‘p qatlamlari bo‘lishi uni muhim lingvokognitiv birlik sifatida mustahkamlaydi.

Muhimi shundaki, tahlil qilingan matnlarda “yo‘l” konsepti ko‘pincha **lisoniy jihatdan ifoda etilmagan** holatda mavjud. Boshqacha aytganda, u ko‘pincha so‘z tarzida emas, balki obraz tarzida — konnotatsiya, assotsiatsiya, semantik tafsilotlar orqali beriladi. Bu esa “yo‘l” konseptining kuchli kontekstual potensialga ega ekanini ko‘rsatadi. Tilshunoslikda bunday hollarda “assotsiativ semantika” deb ataluvchi hodisa sodir bo‘ladi — ya’ni bir so‘z ishlatilmagan taqdirda ham, uning semantik maydoni boshqa belgilar orqali xotirada tiklanadi. Pushkin she’rida “yo‘l” so‘zi bir necha marotaba bevosita tilga olinmagan bo‘lsa-da, “arava”, “yamshchik”, “versta”, “qorong‘ilik” kabi birliklar orqali bu konsept to‘liq tiklanadi [Pushkin, 1836].

Bu jarayon Gogolda yanada murakkabroq semiosferik struktura hosil qiladi. “O‘lik jonlar” romanida asosiy qahramonning doim harakatda bo‘lishi — tashriflar, yo‘ldagi suhbatlar, bekatlar, xizmatkorlarning tayyorgarligi — bularning barchasi yo‘l

kontseptsiyasining badiiy rekonstruksiyasi sifatida ishlatilgan. Lisoniy ifoda mavjud bo‘lmasa-da, konseptning mavjudligi inkor qilib bo‘lmaydi. Shu bois bu kabi hollarda konseptosfera faqat lug‘aviy birliklardan emas, balki badiiy kontekstdan ham shakllanishini ta’kidlash lozim [Gogol, 1842].

Demak, “yo‘l” konsepti har bir adabiy matnda o‘ziga xos madaniy, estetik va semantik yuklama bilan chiqadi. U orqali insonning ichki ruhiy holati, jamiyatdagi o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabati, vaqt bilan kurashish yoki bo‘ysunish holatlari ifodalanadi. Shu sababli, “yo‘l” oddiy metafora emas, balki madaniy ongda shakllangan konseptual modeldir. Uning badiiy ifodasi milliy madaniyatdagi universal tushunchalarning shakllanish mexanizmini ochib beradi.

Xulosa. Mazkur maqolada “yo‘l” konsepti adabiy matnlar va lingvomadaniy kontekst asosida tahlil qilinib, uning xalq tafakkurida, til va madaniyatda qanday semantik, emotsiyal va assotsiativ yuklamalarga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida ma‘lum bo‘ldiki, “yo‘l” atamasi faqatgina geografik harakat yoki transport vositasi bilan bog‘liq emas, balki insonning hayotiy yo‘li, qismati, tanlovi, ichki ruhiy holati, vaqtga munosabati va jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglash kabi keng ko‘lamli tushunchalarni o‘zida mujassam etadi.

Adabiy manbalar asosida olib borilgan assotsiativ tahlillar natijasida “yo‘l” konsepti bilan bog‘liq bo‘lgan ramziy belgilar — arava, yo‘lovchi, vaqt, qorong‘ilik, burilish, qo‘sish, versta belgilarining o‘zaro semantik bog‘liqligi aniqlandi. Bu birliklar orqali konseptning faqat markaziy yadrosi emas, balki periferik va semiosferik qatlamlari ham aniqlab berildi. Bunday ko‘p qatlamlari tuzilma esa “yo‘l” konseptining lingvokognitiv tizimda o‘ziga xos yadroga ega universal tushuncha ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, lisoniy jihatdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda etilmagan holatlarda ham “yo‘l” obrazining kontekstual va assotsiativ vositalar orqali kuchli semantik mavjudligi kuzatildi. Bu holat konseptosfera tushunchasining amalda qanday shakllanishini, uning madaniy ongdagi aksini yaqqol ko‘rsatadi.

Kelgusi tadqiqotlar uchun tavsiya sifatida “yo‘l” konseptining boshqa tillar va madaniyatlardagi verbalizatsiya shakllarini qiyosiy-lingvomadaniy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv orqali konseptual tafakkurning universal va milliy xususiyatlari yanada chuqurroq aniqlanishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Gogol, N. V. (1842). Mërtvye dushi [O‘lik jonlar]. Moskva: Izdatel’stvo Sovetskaya Rossiya.
2. Pushkin, A. S. (1830). Zimnyaya doroga [Qish yo‘li]. In Sobranie sochineniy (Vol. 2, pp. 134–136). Moskva: Nauka.

3. Pushkin, A. S. (1836). Teleqa jizni [Hayot aravasi]. In Sobranie sochineniy (Vol. 3, pp. 202–203). Moskva: Nauka.
4. Likhachev, D. S. (1993). Konceptosfera russkogo yazyka. Sankt-Peterburg: Nauka.
5. Popova, Z. D., & Sternin, I. A. (2000). Kognitivnaya lingvistika. Voronezh: Istoki.
6. Vezhbitskaya, A. (1996). Language, culture, and meaning. Oxford: Oxford University Press.
7. Ojegov, S. I. (1987). Slovar' russkogo yazyka (18th ed., edited by N. Yu. Shvedova). Moskva: Russkiy yazyk.
8. Murodovich, R. M. (2025, May). KONTSEPT KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING ASOSIY TUSHUNCHASI SIFATIDA. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 3, No. 5, pp. 60-63).
9. Razokovna, O. M. (2024, March). Creating an electronic database of terms used in the field of music and dance. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 2, pp. 53-56).
10. Razzokovna, O. M. (2020). Suspense as a Literary Device in English Literature. International Journal on Integrated Education, 3(1), 168-172.